



IBTIDOIY DINLAR VA ULARNING PAYDO BO'LISHI

Umarov Muxammadaziz Akramjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

O'zbekiston tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

Farg'ona davlat universiteti Sport faoliyati fakulteti

shaxmat yo'nalishi 25.164-guruh 1-kurs talabasi

Erkinova Ziyodaxon Ulug'bek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oldingi davrda va oldingi zamonda foydalanilgan hamda paydo bo'lgan ibtidoiy dinlar haqida so'z boradi. Ibtidoiy dinlar haqida bir qancha ma'lumotlarga va kerakli fikrlarga ega bo'lasiz. Ularning paydo bo'lishi, qanday maqsadda foydalanilgani aynan manash maqolada berilgan.

Kalitso'zlar: Ibtidoiy, shomanizm, fetishizm, magiya, animizm, totemizm, ibtidoiy mifologiya.

Ibtidoiy odamlar hozirgi davrdagi singari to'la shakllangan diniy sistemaga ega bo'lmagan. Ularda boshlang'ich diniy tasavvurlargina bo'lgan, xolos. Dinning ana shunday ibtidoiy shakllari urug'chilik tuzumi shakllanayotgan davrda paydo bo'lgan. Ibtidoiy odam o'z qarindoshlarini ko'mishda maxsus marosimlar, ma'lum tayyorgarlik udumlariga amal qilardi. Jasadni qizil mineral bo'yoq bilan qoplanar, uning yoniga kundalik ehtiyoj buyumlari, zeb-ziynatlar, asbob-anjomlar kabi narsalar qo'yilardi. Bularning bari o'z jamoa a'zolarining dafn etayotgan jamoa oxirat mavjud ekanligi haqida ibtidoiy tasavvurlarga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bizga ma'lumki, arxeologik izlanishlar jarayonida yer yuzining turli joylaridagi g'orlarda ibtidoiy odam tomonidan chizilgan rasmlar topilgan. Fanga ma'lum bo'lgan bu g'orlardagi suratlarning ko'pchiligi ov sahnasi, odam va xayvonlarning tasvirlari, xayvon terisini kiygan odamlar, yarim odam va yarim xayvon qiyofasidagi mavjudot suratlardan iborat.

Totemizm – Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida "O totem" (uning urug'i) degan so'zdan kelib chiqqan. Totemizm ibtidoiy g'oyat sodda



diniy e'tiqodning bir turi bo'lib, qadimgi zamondagi urug'-qabila a'zolarining muayyan bir hayvon, o'simlik bilan g'ayritabiiy aloqasi, yaqinligi, qon qarindoshligi bo'lgan deb, bu hayvon va o'simliklarni muqaddaslashtirishdan iboratdir. Totemizmda muayyan kishilar guruhining tabiat, binobarin, tashqi muhit bilan bog'liqligini ifodalovchi dastlabki shakllaridan edi. Har bir qabila yoki urug' o'z sharoitini hamda imkoniyatlarini ko'zda tutib, ba'zi hayvonlarni ovlar va ular haqida yetarli ma'lumotlarga ega edi. Bunday hayvonlarni yaqindan bilish ularning urug' bilan yaqinligi yoki qon-qarindoshligi bo'lsa kerak, degan tasavvurni keltirib chiqargan. Natijada ba'zi hayvonlar, keyinchalik esa o'simlikning ba'zi navlari ham muayyan urug' a'zolarining ajdodi – totemidir, degan tasavvur shakllanishiga olib kelgan. Shu boisdan keyinchalik urug' a'zolari totemning "yordamiga" ko'z tikkanlar, uni muqaddaslashtirib, o'z homiylari deb hisoblaganlar, sehr yo'li bilan unga ta'sir qilishga uringanlar. Totemga sajda kilingan, u himoya qilingan, e'zozlangan, uni otib o'ldirish, iste'mol qilish ma'n etilgan. Faqat ayrim hollarda, ya'ni tantanali kunlarda totem hisoblangan hayvon yoki o'simlikni maxsus rasm-rusumga rioya qilingan holda iste'mol qilish mumkin bo'lgan.

Animizm - (lotincha - animus - jon, ruh demakdir) qadimgi zamon dinlaridan biri, kishi ruhining mavjudligiga ishonishdan iborat. Animizm tabiatdagi buyumlarni ilohiylashtiradi, har bir jismda ruh bor, tanadan tashqarida ham jon bor, deb hisoblanadi.

Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, ehtimol totemistik qarashlar paydo bo'lgungacha, oilaviy jamoalarning shakllanishigacha vujudga kelgan ilk din shakllaridan biridir. Biroq, yetarli tushunib yetilgan va barqaror ko'rinishdagi diniy xarakterga ega bo'lgan tizim sifatida kechroq, totemizm bilan bir vaqtda shakllangan.

Animizm totemizmdan farqlanadi. Totemizm ma'lum bir oilaviy guruhning ichki iste'moliga uni boshqalardan farqlash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lsa, animistik tasavvurlar keng va umumiy xarakterga ega. Ular hammaga tushunarli va ma'qul bo'lgan. Shu bilan birga u tabiatning qudratli kuchlarini – osmon va yer, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momaqaldiroq va chaqmoq kabilarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar nafaqat



tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki relefining ayrim alohida qismlari – tog‘lar va daryolar, adir va o‘rmonlar kabi odam e‘tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo‘lar edilar. Xattoki, ko‘p yillik daraxt, kattaroq xarsang tosh, jarliklarga o‘xshash narsalar ham ibtidoiy odamlar tasavvurida jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushunilgan. Shunday bo‘lgach, ushbu tabiiy narsa. Hodisalarga e‘tibor bilan munosabatda bo‘lish taqozo etilar edi. Qurbonliklar qilish, ularning haqqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilar edi.

Fetishizm - (fetish - fransuz tilidagi "fetiko" – yasalgan tumor, but, sanam degan so‘zlardan olingan) moddiy buyumlarda g‘ayritabiiy xususiyatlar borligiga ishonib, jonsiz narsalarga sig‘inishdir. Ibtidoiy odam ongida har xil moddiy buyumlar – tog‘, qoya tosh, daraxt, keyinchalik turli hayvonlarning suyagi, pati, tumor, sanam va hokazolarda g‘ayritabiiy kuchlar bor, degan tasavvur paydo bo‘lgan. O‘zlari vujudga keltirgan bunday kuchlarga o‘zlari sig‘ina boshlaganlar. Ibtidoiy din shakllaridan biri bo‘lgan fetishizm barcha xalqlarda diniy tasavvurlar shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Fetish ham ijobiy ham salbiy ta'sir etish kuchiga ega. Fetishizm yog‘och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlar paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda shakllangan. Bu butlarda va tumorlarda jamoalar g‘ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko‘rdilar.

Bunday fetishga odatda afsungarlar, shamanlar ega edilar. Ular afsungarlik usullariga binoan bunday buyumlarga ta'sir ko‘rsatganlar. Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining shakllanish jarayonida fetishizam yakunlovchi bosqich bo‘lib qoldi.

Shomonizm – Tungus tilidan sehrgarlik ma'nosini anglatadi. ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilishi davrida paydo bo‘lgan animistik e'tiqod va ibodatning keng doirasiga kiradigan qadimgi diniy e'tiqodlardan biri. Uning o‘ziga xos xususiyati – kishilar orasida turli ruxlar bilan munosabatda bo‘la oladigan shomonlar qobiliyatiga ishonishdir. Shomonlarga, shuningdek, kelajakni oldindan aytib berish, kasalni davolash, o‘lganlarni oxiratga uzatish, tabiatda xohlagancha o‘zgartishlar qilish kabi



xususiyatlar ham xosdir. O‘tmishda shomonlarning ruh bilan aloqasi shomon do‘mbirasi yoki mo‘jizaviy musiqa ijrosida turli rasm-rusumlarni bajarish jarayonida jazavasi tutib, holdan toygancha bajarilgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o‘zini yo‘qotish darajasiga yetib, marosim ishtirokchilari bo‘lib qolar edilar. Odatda shaman marosim oxirida xech narsani ko‘rmay, eshitmay qoladi. Shuning uchun uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb xisoblanadi. Ilohiy kuchlar dunyosi bilan bunday bog‘lanish yo‘li xayotda noma'lum, oldindan bilib bo‘lmaydigan sharoitlardan kelib chiqqan. Lekin shu bilan birga afsungarlik odamlarning fikr yuritish, ongini mutahkamlashda katta rol o‘ynadi. Bu esa diniy ongni shakllanish jarayonida muhim o‘rin tutdi. Shomonizm o‘tmish dinlar qoldig‘i sifatida ba'zi hollarda uchrab turadi.

Magiya (sehrgarlik) – insonga, hayvonga yoki tabiat hodisalariga g‘ayritabiiy yo‘l bilan ta'sir ko‘rsatish maqsadida bajariladigan xatti-harakatdir.

Afsungarlik fikr yuritish rivojlangan sari odamga o‘z-o‘zidan bo‘ladigan, faqatgina maqsadli yo‘nalishdagi harakatlar natijasida olinadigan emas, balki ilohiy kuchlar afsuni bilan bog‘liq bo‘lgan sharoitlardan kelib chiqadigan ko‘rinish deb hisoblangan. Natijada ko‘pchilik aniq hodisalar, xattoki alohida buyumlar sehrli kuch egasi sifatida qabul qilina boshlandi. Sehrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamoa bo‘lib amalga oshirilishi mumkin edi.

Afsungarlik maqsadga ko‘ra, quyidagilarga bo‘linadi:

- 1) Zarar keltiruvchi – yovuz afsungarlik. Uning maqsadi kimgadir zarar yetkazishdan iborat.
- 2) Harbiy afsungarlik. Bu dushmanga qarshi ishlatiladi. Masalan qurol-aslahalarni sehrlash orqali.
- 3) Sevgi afsungarligi. Undan “issiq-sovuq” qilish maqsadida ishlatiladi.
- 4) Tibbiy afsungarlik. Undan davolash maqsadida foydalanilgan. Zamonamizdagi ekstraseanslar, turli qasidaxonlar, folbinlar shu usuldan keng foydalanishadi.
- 5) Ob-havo afsungarligi. Bu sehrgarlik turidan yomg‘ir chaqirish yoki shunga o‘xshash ob-havoni o‘zgartirish maqsadida foydalanilgan.



O‘zbek va tojik xalqlarining milliy bosh kiyimi – do‘ppilarda qushlarning, jumladan, musichaning tasviri uchraydi, deyarli hamma yerlarda bolalarni ko‘z tegishlardan, balo-qazolardan saqlash maqsadida ukkining pati va panjalaridan, ko‘zmunchoqlardan foydalanilgan. Bu hol chorvadorlarda ham uchraydi. Dunyo xalqlarida keng tarqalgan qushlarni, ayniqsa suvda suzadiganlarini e'zozlash, inson vafotidan so‘ng uning joni, ruhi qush shaklida inson tanasini tark etadi deb hisoblash; xorazmliklarda va tog‘li tumanlarda yashovchi tojiklarda ham uchraydi. Tojikistonning uzoq tog‘li viloyatlaridan birida yashovchi elatlar kabutarlarni hanuzgacha inson ruhi deb qarab, ularga ozor bermaydilar, iste'mol qilmaydilar, e'zozlaydilar. Markaziy Osiyo xalqlarining ilk diniy qarashlarida tuya va otlarni muqaddaslashtirish keng o‘rin olgan. Bu jarayon eramizdan oldingi davrlarda ko‘chmanchilik turmush tarzi va u bilan bog‘liq xo‘jalik ishlarining shakllanishi tufayli yanada rivojlangan. Eramizning III-IV asrlaridan boshlab 300 yildan ko‘proq davr mobaynida qadimgi Buxoroda zarb etilgan tangalarda, garchi turli-tuman ko‘rinishlarda bo‘lsa ham, tuyaning tasvirlari chop etilgan. Markaziy Osiyo xalqlarining diniy qarashlarida bunday hayvon shakllaridagi muqaddaslashtirishlarning qoldiqlari uzoq davrlar mobaynida saqlanib qolgan.

Xulosa:Argument sifatida shuni aytish mumkinki ibtidoiy dinlar manashu tarzda paydo bo‘ldi bunga sabab esa ularda hali ongni to‘liq rivojlanmaganligidir.Ular o‘zlariga qaysi predmet ko‘proq foyda keltirsa huddi shunga sig‘inishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prayev.E.E “Din tarixi” 2012
2. Detetyev S “Din va dunyo” 2015
3. Xodiyev S “Markaziy Osiyoda din” 2018